

SUDAN SIYOSIY INQIROZINING TARIXI VA DAVLAT QURILISHIDAGI MUAMMOLAR

Azimov Habibulloxon Yoqubovich,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

dotsenti vazifasini bajaruvchi,

siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID 0000-0003-3240-9145.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Sudan mustaqillikka erishganidan buyon davom etib kelayotgan siyosiy beqarorlik va xavfsizlik inqirozining asosiy omillari tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqot diniy etnik ziddiyatlarning tarixiy shakllanishi, ularning siyosiy jarayonlar bilan uzviy bog'liqligi hamda davlat boshqaruvi va ijtimoiy barqarorlikka ko'rsatgan ta'sirini ilmiy asosda yoritadi. Shuningdek, mamlakatning geostrategik pozitsiyasi va tabiiy resurslari ayniqsa neft va oltin konlari ichki raqobat hamda tashqi geosiyosiy manfaatlar bilan qanday uyg'unlashib, inqiroz dinamikasini chuqurlashtirayotgani ochib beriladi. Darfur muammosining kelib chiqishi va rivojlanishida mintaqaviy hamda global kuchlar raqobatining roli alohida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Sudan, siyosiy beqarorlik, xavfsizlik inqirozi, diniy etnik ziddiyatlar, geosiyosat, tabiiy resurslar, Darfur mojarosi, Janjavidlar, tashqi kuchlar, ichki raqobat, geostrategik joylashuv, "Islomning ikkinchi xabari", etnik ziddiyatlarning siyosiylashuvi, Rapid Support Forces-RSF.

ABSTRACT

This article provides a systematic analysis of the main factors behind the political instability and security crisis that have persisted in Sudan since its independence. The study examines the historical formation of religious and ethnic tensions, their intrinsic connection with political processes, and their impact on governance and social stability. It also explores how the country's geostrategic position and natural resources—particularly oil and gold deposits—interact with internal competition and external geopolitical interests, thereby deepening the dynamics of the crisis. The role of regional and global power rivalries in the emergence and evolution of the Darfur conflict is analyzed separately.

Keywords: Sudan, political instability, security crisis, religious and ethnic tensions, geopolitics, natural resources, Darfur conflict, Janjaweed, external powers, internal competition, geostrategic location, "Second Message of Islam," politicization of ethnic tensions, Rapid Support Forces (RSF).

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлен системный анализ основных факторов политической нестабильности и кризиса безопасности, продолжающихся в Судане со времени обретения независимости. В исследовании рассматриваются историческое формирование религиозно-этнических противоречий, их тесная связь с политическими процессами, а также их влияние на государственное управление и социальную стабильность. Кроме того, анализируется, каким образом геостратегическое положение страны и её природные ресурсы — прежде всего нефтяные и золотые месторождения — сочетаются с внутренней конкуренцией и внешними геополитическими интересами, углубляя динамику кризиса. Особое внимание уделено роли регионального и глобального соперничества сил в возникновении и эволюции конфликта в Дарфуре.

Ключевые слова: Судан, политическая нестабильность, кризис безопасности, религиозно-этнические противоречия, геополитика, природные ресурсы, конфликт в Дарфуре, джанджавиды, внешние силы, внутренняя конкуренция, геостратегическое положение, «Второе послание ислама», политизация этнических противоречий, Силы оперативной поддержки (RSF).

KIRISH

1956-yilda mustaqillikka erishganidan buyon Sudan Max Veber ta'riflagan "markazlashgan va legitim zo'ravonlik monopoliyasiga ega davlat" modelini shakllantirish jarayonida izchil muammolarga duch kelmoqda. Siyosiy institutlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi, markaziy hokimiyatning hududlar ustidan to'liq nazorat o'rnatilmasligi hamda ijtimoiy-etnik qarama-qarshiliklarning saqlanib qolishi mamlakatda rasional-huquqiy boshqaruv tizimini barpo etishni sezilarli darajada murakkablashtiradi. Shu bois Sudan mustaqillik davridan beri davlat suvereniteti, institutsional barqarorlik va legitimlikni mustahkamlashga qaratilgan fundamental vazifalarni bajarishda muntazam inqiroz holatiga tushib qolmoqda. Mavjud ichki nizolar mamlakatni nafaqat ichkarida beqaror siyosiy muhitga mahkum etmoqda, balki uni xalqaro maydonda ham jiddiy qiyinchiliklarga duchor qilmoqda. Geosiyosiy ahamiyati yuqori bo'lgan Sudan jahon siyosatining muhim bo'g'ini sifatida turli kuchlar uchun strategik maydon vazifasini bajaradi. Mamlakatda davom etayotgan mojaro holati esa doimiy ravishda turli manipulyatsiyalarga sabab bo'lmoqda. Xususan, G'arb manbalari va tashkilotlari ushbu masalaga oid ma'lumot va statistiklarni ko'pincha o'z siyosiy maqsadlariga muvofiq tarzda taqdim etayotgani kuzatiladi.

Sudandagi siyosiy beqarorlik va Darfur mojarosiga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar ushbu inqirozning ko'p qatlamli, strukturaviy va tarixiy ildizlarga ega ekanini ta'kidlaydi. Alex de Waal o'zining "The Real Politics of the Horn of Africa"¹ asarida Sudan siyosiy tizimini rentier siyosiy iqtisodiyot modeli orqali talqin qilib, "Darfur mojarosi"ning markaziy hukumat hamda mahalliy qudrat markazlari o'rtasidagi resurslar, ayniqsa oltin va chorvachilik savdosi ustidan nazorat uchun raqobat natijasi sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Julie Flint "Darfur: A New History of a short War"² asarida Janjavidlarining shakllanishi markaziy davlatning parchalangan boshqaruv modeli bilan bog'liq jarayon sifatida talqin qilinib, Sudandagi zo'ravonlikning institutsional ildizlari tizimli tahlil etiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Postkolonial yondashuvning yetakchi vakili Mahmood Mamdani "Saviors and Survivors"³ asarida Darfur mojarosini xalqaro ommaviy axborot vositalaridagi soddalashtirilgan "genotsid" narratividan farqli ravishda, mustamlakachilik siyosati yaratgan etnik kategoriyalar, chegaraviy boshqaruv mexanizmlari va ular mahsuli bo'lgan siyosiy ierarxiyalar orqali izohlaydi. Douglas H. Johnson "South Sudan: A New History for a New Nation"⁴ asarida Shimol-Janub qarama-qarshiliklari, resurslar taqsimotidagi struktur nomutanosiblik va davlat institutlarining tizimli zaifligi Sudan davlatining uzoq muddatli beqarorligining asosiy sabablarini tashkil etishini ilmiy asoslaydi. Jerome Tubiana⁵ esa Darfur va Jabal Amer bo'yicha tadqiqotlarida RSF/Janjavid kuchlarining oltin konlari ustidan nazorat o'rnatishi natijasida "paramilitar iqtisodiyot" shakllanganini, bu jarayon esa davlatning iqtisodiy suvereniteti hamda xavfsizlik arxitekturasining yemirilishini tezlashtirganini ko'rsatadi.

Arab olimlari ham Sudan mojarosini chuqur o'rganganlar. Misrlik siyosatshunos Mohammed Abu al-Qasim Haj Hamad Sudan inqirozini "dual krizis", ya'ni siyosiy legitimlik inqirozi va iqtisodiy tanazzulning bir vaqtning o'zida chuqurlashuvi sifatida izohlaydi. Sudanlik tadqiqotchi Abdulwahab El-Affendi⁶ markaziy davlatning inklyuziv siyosat yurita olmaganini, etnik guruhlar nisbatan institutsional cheklovlar hamda avtoritar boshqaruvning kuchayishi Darfur zo'ravonligining asosiy determinanti ekanini ta'kidlaydi. Shuningdek boshqa tadqiqotchilar Sudan mojarosini

¹ De Waal, A. (2015). *The real politics of the Horn of Africa: Money, war and the business of power*. John Wiley & Sons.

² Flint, J., & De Waal, A. (2008). *Darfur: A short history of a long war*. Bloomsbury Publishing.

³ Mamdani, M. (2009). *Saviors and survivors: Darfur, politics, and the war on terror*. New York.

⁴ Johnson, D. H. (2016). *South Sudan: A new history for a new nation*. Ohio University Press.

⁵ Tubiana, J., & Walmsley, E. (2008). *The Chad-Sudan proxy war and the 'Darfurization' of Chad: myths and reality* (p. 26). Geneva: Small Arms Survey.

⁶ El-Affendi, A. (2009). *Revolutionary Sudan: Hassan al-Turabi and the Islamist State, 1989-2000*.

xalqaro o'lchamda ko'rib, resurslar ustidan raqobat Saudiya Arabistoni, BAA, Misr va Rossiya kabi davlatlarning aralashuvini kuchaytirganini qayd etadi⁷.

Umuman, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Sudan mojarosining sabablari birgina etnik ziddiyatlar yoki siyosiy qarama-qarshiliklar bilan cheklanmaydi; aksincha, tabiiy resurslarning siyosiylashtirilishi, postkolonial meros, institutsional zaiflik, paramilitar tuzilmalar qudratining ortishi va xalqaro geosiyosiy raqobat bir-biri bilan chambarchas bog'langan murakkab tizim sifatida namoyon bo'ladi.

“Sudan” atamasi arab tilida “qorong'u, qora tanlilar” ma'nosini anglatadi. Arablar Afrikaga kirib kelganlaridan so'ng Qizil dengiz qirg'oqlaridan boshlab G'arbiy Afrikagacha cho'zilgan keng hududni, u yerda qora tanli aholi yashaganligi sababli, Biladu's-Sudan ya'ni “Qoralar mamlakati” deb ataganlar. Geografik proyeksiyalar, xususan Merkator yoki Gall Peters xaritalari, Sudan hududining haqiqiy kattaligini to'liq aks ettirmasligi mumkin. Biroq 2011-yilda Janubiy Sudan mustaqil davlat sifatida ajralib chiqquniga qadar u Afrika qit'asidagi eng yirik hududga ega davlat bo'lgan. Hozirda 1 886 000 kvadrat kilometr maydonga ega Sudan Respublikasi Afrikaning eng yirik uch davlatidan biri hisoblanadi. Sharqiy Afrika mamlakatlaridan biri bo'lgan Sudan shimolda Misr, shimoli sharqda Qizil dengiz, sharqda Efiopiya, janubda Janubiy Sudan, g'arbda Markaziy Afrika Respublikasi va Chad, shimoli g'arbda esa Liviya bilan chegaradoshdir. Mamlakatning chegaralari 19-asrda Misrning Usmonli boshqaruvi davrida shakllangan bo'lib, mazkur davr hududiy-siyosiy chegaralarning zamonaviy shaklini belgilab bergan. Sudanning rasmiy tili arab tilidir. Aholining katta qismi arab tilida so'zlashadi. Arab tilidan tashqari ayrim mahalliy qabila tillari ham muomalada qo'llanadi. Mamlakatning rasmiy dini Islom hisoblanadi. AQSh hukumati 2023 yil o'rtalariga kelib Sudan aholisi sonini 49,2 million deb baholagan. Pew Research Center tomonidan 2020 yilda e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, aholining taxminan 91 foizi musulmon, 5,4 foizi nasroniy, 2,8 foizi mahalliy an'anaviy dinlarga e'tiqod qiluvchi guruhlardan iborat bo'lgan, qolgan qismi esa boshqa dinlarga mansub yoki hech bir dinga e'tiqod qilmaydiganlar sifatida qayd etilgan. Ba'zi diniy tashkilotlar esa musulmon bo'lmagan aholining ulushi 13 foizdan ortiq bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar bo'yicha Oliy komissari (UNHCR) ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yil 15 aprelida jangovar harakatlar boshlanishidan avval mamlakat hududida taxminan 1,15 million nafar qochqin va

⁷ https://horninstitute.org/wp-content/uploads/2024/12/HORN-Bulletin-Vol-VII-%E2%80%A2-Iss-VI-%E2%80%A2-November-December-2024.pdf?utm_source=chatgpt.com

boshpana izlovchi shaxslar istiqomat qilgan, ular orasida 808 336 nafar Janubiy Sudan fuqarolari bo'lgan⁸.

Aholining demografik tarkibida yoshlar ulushi yuqori bo'lib, umumiy aholining qariyb 40 foizi 15 yoshdan kichik bo'lgan bolalardan iborat. Shuning uchun ham yoshlar o'rtasidagi ishsizlik mamlakatning eng dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolaridan biri sifatida ko'riladi. Sudan aholisi etnik, diniy va lingvistik jihatdan yuqori darajada rang-baranglikka ega. Mamlakat hududida juda ko'p etnik guruhlar yashaydi. Etnik tarkibda arab kelib chiqishiga mansub musulmonlar eng yirik guruh bo'lib, ular umumiy aholining taxminan 50 foizini tashkil etadi. Udandagi etnik tarkib nihoyatda rang-barang bo'lib, bir-biridan til, madaniyat va diniy an'analari bilan farqlanadigan ko'plab guruhlarini o'zida mujassam etadi. Aholining muhim qismini tashkil etuvchi guruhlardan Dinka xalqi taxminan 11,5 foizni, Beja xalqi 6,5 foizni, Nubalar 6 foizni, Nubiylar esa 5 foiz atrofini tashkil etadi. Shuningdek, Hausalar (4 foiz), Azandeler (2,7 foiz), Beriler (2,5 foiz), Furlar (2 foiz), Fulanilar (1,5 foiz), Masalitlar (1,1 foiz), Takalilar (0,9 foiz) va Tamalar (0,5 foiz) mamlakatning muhim etnik guruhlarini qatoriga kiradi. Ulardan tashqari, ulushi 0,5 foizdan kam bo'lgan ko'plab kichik etnik jamoalar ham mavjud bo'lib, ular Sudan etnik manzarasining murakkabligini yanada oshiradi⁹.

1956-yilda mustaqillikka erishgan Sudan etnik xilma-xillik va ichki ijtimoiy qarama-qarshiliklar tufayli yuzaga kelgan fuqarolar urushlari oqibatida katta iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelgan hamda boshqaruv tizimi ko'p hollarda harbiy nazorat ostida qolgan. 1969-yilda general Jafar Numayriy tomonidan amalga oshirilgan harbiy to'ntarishdan so'ng hukumat 1972-yilda janublik guruhlar bilan Addis-Abeba kelishuvini imzoladi va ushbu kelishuv Janubiy Sudanga nisbiy avtonomiya taqdim etdi. Biroq 1976 yilda Sodiq al-Mahdiy tomonidan uyushtirilgan navbatdagi to'ntarish urinishining muvaffaqiyatsiz yakunlanishi Numayriyni yanada qat'iy choralar ko'rishga undadi va u janubiy hududlarga nisbatan siyosatini keskinlashtirdi. Aynan shu davrda Numayriy "Musulmon Birodarlar" tashkiloti bilan yaqin aloqalar o'rnatdi hamda o'sha paytda hanuz ushbu harakat tarkibida bo'lgan Hasan at-Turabiyni bosh prokuror lavozimiga tayinladi. Turabiyning siyosiy va mafkuraviy ta'siri ostida Numayriy 1983-yilda mamlakatda islomiy shariat asosidagi boshqaruv tizimini joriy etish to'g'risida qaror qabul qildi.

Shariatning tatbiqi xristian va animistik e'tiqodga mansub janubiy aholi, ayniqsa Dinka va boshqa mahalliy guruhlar orasida kuchli e'tirozlarga sabab bo'ldi. Bu noroziliklar polkovnik Jon Garang boshchiligidagi qurolli qo'zg'olonlarning yana avj

⁸ 2023 Report on International Religious Freedom: Sudan.

Internet manba: https://www.ecoi.net/en/document/2111963.html?utm_

⁹ O'Fahey, R. S. (1996). Islam and Ethnicity in the Sudan. *Journal of religion in Africa*, 258-267.

olishiga olib keldi. Sudanning shariat asosida boshqarilishga o'tishi mintaqadagi ba'zi davlatlar, jumladan Misr va Isroilda ham tashvish uyg'otdi. Ular bunday siyosiy burilish mintaqaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi, diniy radikallashuvni kuchaytirishi hamda Nil havzasi va Qizil dengiz bo'yidagi geostrategik muvozanatni izdan chiqarishi mumkinligini ta'kidladilar.

Ushbu davrda musulmon olim Mahmud Muhammad Toha 1983-yilda Ja'far Numayriy tomonidan tatbiq etilgan "Sentabr qonunlari" nomli islomiy-huquqiy majmuani keskin tanqid qilgan siyosiy pamfletini chop ettadi. Tohaning fikricha, mazkur qonunlar na mamlakat konstitutsiyasi, na Sudan jamiyatining o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy sharoitlariga mos kelardi. U ochiq tarzda Nimeyriyni ushbu shariatga asoslangan qonunlarni bekor qilishga chaqirdi. Tohoning bu pozitsiyasi hukumatning keskin reaksiyasiga sabab bo'lib, u hibsga olingan va 1985-yil yanvar oyida qatl etilgan. Mahmud Muhammad Tohoning qatl etilishi uning diniy-falsafiy ta'limotlari, ayniqsa "Islomning ikkinchi xabari"da ilgari surilgan yangicha talqinlari va Nimeyri rejimining shariat qonunlarini tanqid qilgani bilan bevosita bog'liq edi. Uning qatl etilishi mamlakatdagi siyosiy taranglikni yanada kuchaytirgan va rejimning tobora avtoritar tus olayotganini ko'rsatib bergan.

Ichki siyosiy beqarorlik va qurolli to'qnashuvlar Sudan iqtisodiyotiga jiddiy zarar yetkazdi. 1984–1985-yillardagi keskin qurg'oqchilik iqtisodiy inqirozni chuqurlashtirib, mamlakatni og'ir moliyaviy tanglikka olib keldi. Ushbu sharoitda Jafar Numayri harbiylar tomonidan hokimiyatdan chetlashtirildi va uning o'rniga Sodiq al-Mahdiy¹⁰ davlat rahbari etib tayinlandi. Biroq fuqarolik urushi va iqlimiy inqirozning davom etayotgan oqibatlari iqtisodiy barqarorlikka erishishga imkon bermadi. Mahdiy hukumatining strukturaviy muammolarni bartaraf eta olmaganini esa 1989-yilda brigada generali Umar al-Bashir boshchiligida amalga oshirilgan harbiy to'ntarish bilan yakunlandi. Umar al-Bashir davrida ham Sudan ichida markazlashgan davlat tuzish bilan bog'liq muammolar davom etib, siyosiy va etnik- hududiy boshqaruv masalalari hal etilmay qolmoqda edi. Shimol va Janub o'rtasidagi uzoq yillar davom etgan qurolli to'qnashuvlar to'xtatilishi bo'yicha erishilgan tinchlik kelishuvi dastlab Sudan jamiyati hamda xalqaro hamjamiyatda mamlakat nihoyat barqarorlashadi, neft eksportidan olinadigan daromadlar esa iqtisodiy tiklanish uchun mustahkam asos yaratadi, degan katta umid uyg'otdi. Chunki ko'p yillik fuqarolik urushi mamlakatning moddiy va institutsional salohiyatini jiddiy zaiflashtirgan, hukumatning boshqa ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga e'tibor qaratish imkonini keskin cheklab qo'ygan edi. Biroq tinchlik jarayonining boshlanganiga qaramay, u

¹⁰ Sodiq al-Mahdiy — Sudan siyosatining yirik arbobi, Ummat partiyasi yetakchisi bo'lib, 1966–1967 va 1986–1989-yillarda mamlakat Bosh vaziri lavozimida ishlagan.

safarbarlik holatiga to'liq barham berolmadi va mojaroni keltirib chiqargan milliy hamda xalqaro omillarni chuqur bartaraf etmadi. Aksincha, kelishuvning o'zi ham ayrim hollarda mavjud ziddiyatlarning yangi shaklda namoyon bo'lishiga zamin yaratdi. Shu bois mamlakat ichida hal etilmagan etnik, iqtisodiy va siyosiy qarama-qarshiliklar yana keskinlashib, g'arbiy hudud — Darfur viloyatida murakkab inqirozning boshlanishiga olib keldi.

Mahalliy agrar aholi bilan ko'chmanchi chorvador arab qabilalari o'rtasidagi resurslar uchun raqobat bosqichma-bosqich kuchayib, mojaroning hududiy ko'lamlari tobora kengayib bordi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, Darfur mintaqasida suv va yaylovlar tanqisligi, cho'llanish jarayonining tezlashuvi hamda demografik bosim ushbu ziddiyatlarning asosiy strukturaviy omillaridan biri bo'lgan. Natijada Sudan tarkibidagi Darfur mintaqasi qisqa fursatda yangi mojarolar markaziga aylandi. Mahalliy Fur, Masalit va Zagava kabi dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi qabilalar hamda Baggara va Abbala singari ko'chmanchi chorvador arab guruhlar o'rtasidagi raqobat ekologik inqiroz, resurslar tanqisligi va siyosiy marginalizatsiya jarayonlari bilan uyg'unlashib, Darfur mojarosining keng ko'lamli va uzoq davom etuvchi shaklga kirishiga zamin yaratdi. Kuchli qabila tuzilmalari va mahalliy identitetning ustuvorligi esa bu nizolarning yirik qurolli to'qnashuvlarga aylanishi uchun doimo yuqori darajadagi xavf va zamin yaratib kelgan. Afrika kelib chiqishidagi Fur, Masalit va Zagava kabi guruhlar o'zlarini mintaqaning asl egalari deb bilgan holda, arab kelib chiqishiga ega Shimoliy siyosiy elitaning so'nggi yillarda hududga ko'chib kelgan arab qabilalarini qo'llab-quvvatlayotganini haqsizlik sifatida qabul qilgan. Janubiy Sudan qurolli kurash orqali avtonom hukumatga erishgani va mamlakat resurslarini taqsimlashda federal darajada ishtirok etish huquqini qo'lga kiritgani darfurliklar orasida ham shunga o'xshash siyosiy vakillik va hududiy avtonomiya talablari kuchayishiga sabab bo'ldi. Shu tariqa, mavjud etnik-hududiy ziddiyatlar siyosiy chetlashuv bilan qo'shib, markaziy hukumatga qarshi qurolli qo'zg'olonning yuzaga kelishiga olib keldi. Bunday sharoitda mamlakat prezidenti Umar al-Bashir Darfur mintaqasidagi zo'ravonliklarni jilovlash maqsadida mahalliy arab-musulmon qabilalaridan tarkib topgan paramilitar tuzilmalarni shakllantirdi. Ushbu guruhlar hududiy xavfsizlikni ta'minlash, chegaralarni himoya qilish hamda mintaqadagi qurolli to'qnashuvlarning kengayib ketishining oldini olish vazifalari yuklatildi. Mahalliy aholi ushbu arab qurolli guruhlarini keyinchalik "Janjavid"¹¹ nomi bilan atay boshladi. Vaqt o'tishi bilan Janjavid kuchlarining faoliyati Darfurda chuqur gumanitar inqirozning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Ushbu guruhning yetakchisi

¹¹ Atamaning kelib chiqishi haqida bir nechta talqinlar mavjud bo'lib, keng tarqalgan izohga ko'ra u arabcha "jinn", "jawad" yoki "jund" so'zlari bilan bog'lanadi va xalq orasida "otli jinlar" ma'nosida qo'llanadi.

Muhammad Hamdan Dagalo (Hamidati) oddiy chorvadorlikdan katta qurolli tuzilma rahbarligigacha ko'tarildi. Prezident Umar al-Bashir Darfurdagi vaziyat ustidan nazoratni mustahkamlash maqsadida unga va polkovnik Abdulfattah al-Burhanga favqulodda vakolatlar berdi. Natijada hukumatga yaqin Janjavid bo'linmalari mintaqada keng ko'lamli insoniyatga qarshi jinoyatlar sodir etdi. Ushbu harakatlar oqibatida xalqaro hamjamiyat Sudan prezidenti Umar al-Bashirga nisbatan xalqaro miqyosda jinoiy javobgarlikni qo'llash choralari ko'rib, unga qarshi Xalqaro jinoyat sudi tomonidan qidiruv e'lon qilinishiga erishdi¹².

Sudan prezidenti Umar al-Bashir mamlakat siyosiy tarixida to'ntarishlarning odatda harbiylar tomonidan amalga oshirilganini yaxshi bilgan va o'z armiyasida ham unga qarshi potensial xavf mavjudligini anglagan. Sudan xalqaro maydonda iqtisodiy va siyosiy sanksiyalar bosimi ostida qolgan bir paytda, al-Bashir harbiy elita tomonidan hokimiyatdan ag'darilish ehtimolini kamaytirish maqsadida kuchlar muvozanatini o'zgartirishga intildi. Shu sababli u Janjavid kuchlarini bosqichma-bosqich rasmiy armiyaga integratsiya qilishni ma'qul ko'rdi.

Ushbu strategiyaning yana bir muhim omili Janjavid kuchlariga rasmiy maqom berish va ularni Rapid Support Forces (RSF) nomi ostida davlat xavfsizlik apparatiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish, shuningdek, ularning rahbari Muhammad Hamdan Dagaloni armiyada yuqori martabali lavozimga jumladan general unvoniga tayinlash orqali mazkur tuzilma ustidan institutsional nazoratni mustahkamlashga qaratilgan edi.

Muammoning jahon miqyosida keng rezonans uyg'otishi ortidan BMT Xavfsizlik Kengashi 2007-yil 31-iyulda qabul qilingan 1769-sonli rezolyutsiya bilan BMT va Afrika Ittifoqining qo'shma tinchlikparvar missiyasi — UNAMIDni Darfurga joylashtirishga ruxsat berdi. UNAMID uchun yillik 1,6 milliard dollarlik byudjet, 19555 nafar harbiy xizmatchi, 6 432 nafar politsiya xodimi hamda fuqarolik personalini o'z ichiga olgan keng ko'lamli tarkib rejalashtirilgan bo'lsa-da, missiya kutilgan natijalarga erisha olmadi. Ushbu missiyada faoliyat yuritgan mas'ul shaxslardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, kuchning samarali faoliyat yurita olmasligiga bir necha omillar sabab bo'lgan: tuzilmaning ikki tomonlama tabiati, personalning malaka va resurs jihatdan yetarli darajada tayyor emasligi, moliyaviy va ma'muriy cheklovlar¹³. Bu omillar missiyaning hududdagi zo'ravonliklarni kamaytirish va xavfsizlikni tiklashdagi rolini ancha zaiflashtirdi. Shuningdek, missiya ichida Afrika Ittifoqi va BMT vakillari o'rtasidagi institutsional tafovutlar ham ichki bo'linishga olib kelib, umumiy salohiyatni yanada pasaytirgan. Sudan hukumati

¹² Civil War in Sudan. <https://www.cfr.org/global-conflict-tracker/conflict/power-struggle-sudan>

¹³ United Nations – *Report of the Secretary-General on the deployment of the AU/UN Hybrid Operation in Darfur*, S/2007/653, 5 November 2007.

mazkur kuchni boshidan boshlab iliq kutib olmagani kabi, mahalliy aholi ham bu missiyaga ancha sovuq munosabat bildirgan. Natijada, ushbu omillar UNAMIDning mintaqada zo‘ravonliklarni to‘xtatish va barqaror xavfsizlikni ta‘minlash haqidagi umidlarini sezilarli darajada susaytirgan.

2012-yilda Shimoliy Darfurdagi Jabal Amer hududida yirik oltin konlarining aniqlanishi Sudan iqtisodiy-siyosiy jarayonlarida yangi bosqichni boshlab berdi. Neft eksportidan olinadigan daromadlarning keskin qisqarishi sharoitida oltin qisqa muddat ichida mamlakatning asosiy strategik resursiga aylandi¹⁴. Biroq ushbu resursning tezkor iqtisodiy ahamiyat kasb etishi markaziy hukumat, mahalliy elitalar va qabila guruhlarini o‘rtasidagi raqobatni kuchaytirib, mintaqadagi resurs siyosatining yanada keskinlashishiga olib keldi. Kon hududlari ustidan nazoratning qo‘lga kiritilishi etnik va qabila guruhlarini o‘rtasidagi ziddiyatlarni chuqurlashtirib, mavjud ijtimoiy-siyosiy taranglikni yanada oshirdi.

Oltin sanoati atrofidagi migratsiya oqimlari, noqonuniy qazib olish amaliyoti hamda korrupsion sxemalarning kengayishi Darfurdagi beqarorlikning strukturaviy ildizlarini yanada murakkablashtirdi. 2017-yildan boshlab RSF/Janjavid kuchlarining Jabal Amer ustidan de facto nazorat o‘rnatishi resurs xavfsizligini davlat institutlaridan ko‘ra paramilitar tuzilmalarning qo‘liga o‘tishiga zamin yaratdi¹⁵. Bu esa davlatning institutsional imkoniyatlari zaiflashuviga, kuchlar muvozanatining buzilishiga va markaziy hokimiyat ustidan nazoratning tobora yemirilishiga olib keldi.

2019-yilda Umar al-Bashirning ommaviy noroziliklar bosimi ostida hokimiyatdan ag‘darilishi Sudan siyosiy tizimida yangi davrning boshlanishi sifatida ko‘rilgan bo‘lsa-da, amalda bu jarayon davlatning demokratik transformatsiyasini ta‘minlamadi. Aksincha, Bashirdan keyingi siyosiy bo‘shliq elitalar o‘rtasidagi kuchlar muvozanatini yanada beqarorlashtirib, o‘tish davri boshqaruvining zaif institutsional poydevorini yanada yemirdi. Harbiy Kengash va fuqarolik kuchlari o‘rtasida taklif qilingan tranzit mexanizmlari ichki ishonchsizlik, raqobat va resurslar ustidan nazorat uchun kurash tufayli amalda samarasiz bo‘lib qoldi. Shu davr mobaynida RSF rahbari Muhammad Hamdan Dagalo (Hemedti) ayniqsa Jabal Amer oltin konlari ustidan o‘rnatgan nazoratiga tayanib, mustaqil siyosiy va harbiy markazga aylandi. Bu esa rasmiy armiya hokimiyatdagi mavqei izdan chiqarib, mamlakat ichida ikki markazli qurolli tuzilma paydo bo‘lishiga olib keldi. 2021-yilda amalga oshirilgan harbiy to‘ntarish ham aynan shu kuchlar o‘rtasidagi raqobatning keskinlashuvi oqibati bo‘lib, o‘tish davri hukumatining barbod bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

¹⁴ Jérôme Tubiana. Out for Gold and Blood in Sudan. <https://www.crisisgroup.org/africa/sudan/out-gold-and-blood-sudan?utm>

¹⁵ Gold and the war in Sudan. <https://www.chathamhouse.org/2025/03/gold-and-war-sudan>

2023-yil aprel oyidan boshlab Sudan Qurolli Kuchlari (SAF) va RSF o'rtasidagi qarama-qarshilik ochiq fuqarolar urushiga aylandi. Mojaro Xartumdan tashqariga tarqalib, Darfur, Kordofan va boshqa hududlarda ham keskinlashdi va millionlab odamlarni ichki hamda tashqi migratsiyaga majbur qildi. RSFning oltin sanoati orqali moliyaviy mustahkamlanishi, SAFning esa xalqaro ittifoqchilar orqali harbiy ustunlikka erishishga urinishi mojaroga mintaqaviy geosiyosiy o'lcham qo'shdi.

Bugungi Sudan mojarosi faqat siyosiy raqobat yoki etnik ziddiyatlar mahsuli emas; u resurslar ustidan nazoratning paramilitar guruhlar qo'liga o'tishi, davlat suverenitetining izchil yemirilishi va ko'plab tashqi aktorlarning aralashuvi natijasida murakkablashgan ko'p qatlamli inqirozdir. Oltin konlaridan kelayotgan daromadlar RSFning harbiy va iqtisodiy avtonomiyasini mustahkamlab, davlatning rasmiy institutlaridan mustaqil kuch markazining shakllanishiga zamin yaratdi. Natijada Sudan bugungi kunda resurslar siyosati, zaif davlat institutlari va qurolli guruhlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar kesishgan, yuqori darajada fragmentatsiyalashgan xavfsizlik muhitiga aylangan.

XULOSA

So'nggi yillarda paramilitar kuchlarning resurs hududlari ustidan ustunlikka erishishi davlat hokimiyatining vertikalini yemirib, xavfsizlikning fragmentatsiyasini yanada chuqurlashtirdi. Sudan armiyasi va RSF o'rtasidagi keng ko'lamli to'qnashuvlar aynan resurslar ustidan gegemonlik uchun kurashning o'tkir ko'rinishiga aylandi. Bu jarayon Tomas Gobbs ta'riflagan "bellum omnium contra omnes", ya'ni har bir kuchning har bir kuchga qarshi urushi tamoyilining real siyosiy makonda qayta namoyon bo'layotganini tasdiqlaydi. Sudan kontekstida resurslar ustidan nazoratsiz kurash jamiyat va davlatni tartibga emas, tabiiy holatga yaqinlashtirmoqda. Natijada oltin sektorining iqtisodiy imkoniyatlari qurolli fraksiyalar o'rtasidagi ziddiyatlarni yanada keskinlashtiruvchi omilga aylandi. Bu vaziyat davlat barqarorligini tiklash uchun resurs boshqaruvida markazlashgan, shaffof va inkluziv mexanizmlarni joriy etish zaruriyatini yanada oshirmoqda. Sudan tajribasi tabiiy boyliklar ustidan nazoratning zaifligi mojarolarni kuchaytirishi va davlatning erkin qulash dinamikasini tezlashtirishi mumkinligini yaqqol ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. De Waal, A. (2015). *The real politics of the Horn of Africa: Money, war and the business of power*. Polity Press.
2. Flint, J., & De Waal, A. (2008). *Darfur: A new history of a long war*. Zed Books.
3. Johnson, D. H. (2016). *South Sudan: A new history for a new nation*. Ohio University Press.

4. Mamdani, M. (2010). *Saviors and survivors: Darfur, politics, and the war on terror*. Pantheon Books.
5. Tubiana, J. (2021). *Gold and power in the Central Sahel: The rise of paramilitary economies*. Small Arms Survey.
<https://www.smallarmssurvey.org>
6. O'Fahey, R. S. (1996). Islam and Ethnicity in the Sudan. *Journal of religion in Africa*, 258-267.
7. El-Affendi, A. (2009). *Revolutionary Sudan: Hassan al-Turabi and the Islamist State, 1989-2000*.
8. UNHCR. (2023). *Sudan situation update*. United Nations High Commissioner for Refugees.
<https://www.unhcr.org>
9. UN Security Council. (2007). *Resolution 1769 (UNAMID)*. United Nations.
<https://digitallibrary.un.org>
10. Bo'ronov, S., & Azimov, H. (2023). *Sharq mamlakatlarida xavfsizlik muammolari va mojarolari. Toshkent: EFFECT_D*.